



XORIJIY INVESTITSIYALAR UCHUN O 'ZBEKISTON JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

IBADULLAYEV SHAMSIDDIN NURADDIN O'G'LI

Mirzo Ulug 'bek Nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekistonning iqtisodiyotining qanday ekanligi, xorijiy investitsiyalarni kiritishda qanday chora tadbirlar qilinayotganligi masalasida yangi va so 'ng'i ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikka erishish bo'yicha zaruriy usullar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, YAIM, biznes yuritish, O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar, xorijiy investitsiyalar, o'sish sur'ati, iqtisodiy barqarorlik, milliy valyuta, subsidiya.

Аннотация. В статье представлена новая и актуальная информация о текущем состоянии экономики Узбекистана и мерах, принимаемых для привлечения иностранных инвестиций. Также были проанализированы необходимые методы достижения экономической стабильности.

Ключевые слова: инфляция, ВВП, ведение бизнеса, свободные экономические зоны в Узбекистане, иностранные инвестиции, темпы роста, экономическая стабильность, национальная валюта, субсидия.

Annotation. This article provides new and up-to-date information on the current state of Uzbekistan's economy, the measures being taken to attract foreign investment, and analyzes the necessary methods to achieve economic stability.



Key words: *inflation, GDP, doing business, free economic zones in Uzbekistan, foreign investments, growth rate, economic stability, national currency, subsidy.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi eng yirik iqtisodiyotlardan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda mamlakatda iqtisodiy o‘sish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalgalashmoqda. O‘zbekistonning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari iqtisodiy barqarorlik va investitsiyaviy muhitning holatini belgilaydigan asosiy indikatorlardan hisoblanadi. Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) so‘nggi yillarda barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda. Xususan, 2024 yilning hisob-kitoblariga ko‘ra, YAIM 6,5% ga o‘sdi va 1 kvadrillion so‘mdan oshdi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishini anglatadi¹. Iqtisodiyot tarkibida sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasi asosiy o‘rinni egallaydi. Xizmatlar sohasi 6,8% ga o‘sgan bo‘lsa, savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari 10,2% ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari esa 10,4% ga oshgani qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati inflatsiyani nazorat qilish va milliy valyuta barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. 2024 yil davomida inflatsiya darajasi 8,7% ni tashkil etdi, bu esa 2023 yilga nisbatan biroz yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Yillik inflatsiya darajasi 10% dan oshib, aholi xarid qobiliyati va iste’mol bozorida muayyan o‘zgarishlarga olib keldi. Shu bilan birga, milliy valyuta — so‘mning devalvatsiya jarayonlari tashqi iqtisodiy omillar bilan bog‘liq holda davom etmoqda. Davlat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida moliyaviy tizimni mustahkamlash va bank sektorini rivojlantirish yo‘nalishida faol harakat qilmoqda.²

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, “2024 yil Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisobot,” Toshkent, 2025.

² O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, “Moliyaviy tizim va bank sektorini rivojlantirish strategiyasi,” 2024 yil, Toshkent.



Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi ortib bormoqda. Hukumat tomonidan xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, davlat sarmoyalari ham infratuzilmani rivojlantirish va strategik ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. 2024 yilda O‘zbekistonning yalpi ichki mahsulotidagi investitsiyalar ulushi 34% ni tashkil etdi, bu esa mamlakatning iqtisodiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlashda muhim omildir.

Biznes yuritish uchun mavjud sharoitlar O‘zbekistonda biznes yuritish sharoitlari sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Jahon bankining "Doing Business" reytingida O‘zbekiston 6 yil ichida 141-o‘rindan 69-o‘ringa ko‘tarildi³, bu esa mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston hukumati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yanada yaxshilash maqsadida qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va subsidiyalar Investitsiyalarni jalb etish maqsadida O‘zbekiston hukumati tomonidan qator imtiyozlar va subsidiyalar taqdim etilmoqda. Jumladan, soliq imtiyozlari, bojxona to‘lovlaridan ozod qilish, kreditlar bo‘yicha subsidiyalar va boshqa moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari orqali investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu kabi imtiyozlar, ayniqsa, ustuvor tarmoqlar va hududlardagi loyihalar uchun amal qiladi. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiy rivojlanish va investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyatga ega. 2023 yilning 1 aprel holatiga ko‘ra, mamlakatda 21 ta maxsus iqtisodiy zona, 296 ta kichik sanoat zonası, 23 ta texnopark va 494 ta klaster faoliyat yuritmoqda. EIZlar investorlarga soliq va bojxona imtiyozlari, tayyor infratuzilma va boshqa qulayliklar taqdim etib, ularning samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi. O‘zbekistondagi investitsiya

³ Jahon banki, *Doing Business Report* (2020), Uzbekistan Country Profile: <https://www.doingbusiness.org>



muhitini shakllantiruvchi omillar davlat va xususiy sektor hamkorligi, qulay biznes sharoitlari, hukumat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozlar va erkin iqtisodiy zonalarning samarali faoliyatini o‘z ichiga oladi. Bu omillar mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishini ta’minlashda xorijiy investitsiyalarni jalg etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, huquqiy va institutsional muhitning yaxshilanishi, soliq va bojxona imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati xorijiy sarmoyadorlar uchun O‘zbekistonni jozibador hududga aylantirmoqda.⁴ Xorijiy investitsiyalar hajmi va o‘sish dinamikasi So‘nggi yillarda O‘zbekistonga jalg qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda. 2024 yilning dastlabki 10 oyida mamlakatga 26 milliard dollardan ortiq to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalg qilindi. Bu ko‘rsatkich 2023 yilning shu davriga nisbatan 1,7 barobarga ko‘pdir. Ayniqsa, sanoat, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi va energetika sektorlari eng ko‘p sarmoya jalg etgan sohalar hisoblanadi⁵. Shuningdek, 2024 yilning birinchi yarmida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 229,3 trillion so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2023 yilning shu davriga nisbatan 1,4 barobarga oshgan. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi esa 157,6 trillion so‘mga yetgan bo‘lib, bu ham 1,7 barobarga o‘sishni anglatadi. Quyida 2024 yilning birinchi yarmida asosiy kapitalga jalg qilingan investitsiyalar tarkibi ko‘rsatilgan: Investitsiya turi Hajmi (trln so‘mda) O‘sish sur’ati (2023 yilning shu davriga nisbatan) Jami investitsiyalar 229,3 1,4 barobar. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar 157,6 1,7 barobar

⁴ Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. (2024). *O‘zbekiston Respublikasining investitsiya muhiti va imtiyozlari.* <https://mift.uz>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR). (2024). *Sektorlar bo‘yicha investitsion faoliyat tahlili.*



Инвестиция тури сўмда)	Ҳажми (трлн 2023 даврига нисбатан)	Ўсиш (2023 йилнинг шу даврига нисбатан)	суръати
Жами	229,3	1,4 баробар	
инвестициялар			
Хорижий инвестициялар кредитлар	157,6	1,7 баробар	
ва			

1-jadval. 2024 yilning birinchi yarmida asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar tarkibi. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonga bo'lgan xorijiy sarmoyadorlar ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq, 2024 yilning dekabr oyida BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESCAP) hisobotiga ko'ra, mamlakatga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 4 milliard dollarni tashkil etgan bo'lib, bu 2023 yilga nisbatan 49% kamaygan. Bu pasayishning asosiy sabablari orasida global iqtisodiy beqarorlik, kreditlash shartlarining o'zgarishi va geosiyosiy vaziyatlar ta'siri bor. Xorijiy sarmoyadorlar geografiyasi

O'zbekistonga sarmoya kiritayotgan davlatlar orasida Xitoy, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Arab davlatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Masalan, Xitoy 2024 yilning birinchi yarmida 3,6 milliard dollarlik investitsiya kiritgan bo'lsa, Rossianing O'zbekistonga yo'naltirgan sarmoyalari 2 milliard dollardan oshdi. Janubiy Koreya avtomobilsozlik va texnika sohalarida faol investitsiya kiritmoqda, Turkiya esa to'qimachilik va qurilish sohalariga e'tibor qaratayotgani ma'lum. Yevropaning yirik kompaniyalari esa qayta tiklanuvchi energiya, kimyo va farmatsevtika sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirmoqda⁶. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar

⁶ CERR. (2024). *Xorijiy investitsiyalar geografiyasi va tendensiyalar*.



Shu bilan birga, xorijiy sarmoyalarni jalg etishda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan:

- Byurokratik to'siqlar va investitsiya jarayonlarining uzoq vaqt olishi;
- Infratuzilmaning ayrim hududlarda yetarlicha rivojlanmaganligi;
- Xalqaro arbitraj va qonun ustuvorligiga oid xavotirlar;
- Maxsus iqtisodiy zonalardagi ba'zi me'yoriy cheklovlar.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun O'zbekiston hukumati xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratish maqsadida qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Davlat tomonidan investitsiyalarni himoya qilish, huquqiy kafolatlar berish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish kabi choralar ko'rilmoxda. O'zbekiston xorijiy sarmoyalarni jalg etish bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlardan biriga aylanmoqda⁷. So'nggi yillarda mamlakatga investitsiya oqimi ortib, sanoat, infratuzilma va energetika kabi sohalarda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq, global va mahalliy muammolar investitsiya oqimida turli o'zgarishlarga olib kelmoqda. Shu bois, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, qonunchilikni takomillashtirish va infratuzilmani rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib golmoqda.

O'zbekistonning investitsiya salohiyati mamlakatning tabiiy resurslari, strategik geografik joylashuvi, yosh va mehnatbop aholisi, shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan belgilanadi. Investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalg qilish maqsadida hukumat tomonidan turli chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Bu jarayonda infratuzilmani rivojlantirish, soliq imtiyozlari va erkin iqtisodiy zonalar kabi mexanizmlar katta rol o'ynaydi. O'zbekistonning investitsiya salohiyati

O'zbekistonning investitsiya salohiyati bir necha yo'naliislarda namoyon bo'ladi:

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy islohotlar bo'yicha farmonlari. (2023–2024).



- Tabiiy resurslar va sanoat bazasi

Mamlakatda neft, gaz, ko‘mir, uran, oltin, mis va boshqa qimmatbaho metalllar katta zaxiraga ega. O‘zbekiston dunyoda oltin qazib olish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri bo‘lib, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" (NKMK) va "Almalik kon-metallurgiya kombinati" (AKMK) yirik ishlab chiqarish quvvatlariga ega. Tabiiy gaz va kimyo sanoatiga xorijiy investorlar tomonidan katta qiziqish mavjud.

- Qishloq xo‘jaligi va agrosanoat majmuasi
O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakat paxta, meva-sabzavot, uzum, gilos, anor va poliz mahsulotlari yetishtirishda Markaziy Osiyoda yetakchi hisoblanadi. So‘nggi yillarda agrobiznesni rivojlantirish uchun xalqaro investitsiyalarni jalg qilish borasida davlat tomonidan turli grantlar va subsidiyalar ajratilmoqda⁸.

- Strategik joylashuv va transport-logistika imkoniyatlari
O‘zbekistonning Yevroosiyoning markazida joylashgani uni yirik logistika markaziga aylantirish imkonini beradi. Yangi transport yo‘lklari, xususan, "Sharq-G‘arb" va "Janub-Shimol" savdo yo‘nalishlaridagi muhim rol O‘zbekistonni global savdo tizimida muhim nuqtaga aylantirmoqda⁹.

- Turizm va xizmat ko‘rsatish sohasi
O‘zbekistonning Buxoro, Samarqand, Xiva kabi tarixiy shaharlari YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Turizm salohiyatini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan vizasiz rejim joriy etilishi, yangi mehmonxonalar va sayyohlik infratuzilmasining yaratilishi sohani yanada rivojlantirishga turtki bermoqda.

⁸ Qishloq xo‘jaligi vazirligi. (2024). *Agrosanoat strategiyasi va xorijiy investitsiyalar*.

⁹ Transport vazirligi. (2024). *Strategik transport yo‘nalishlari*.



Foydalanilgan adabiyotlar tahlili.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy islohotlar bo‘yicha farmonlari. (2023–2024). Toshkent.
2. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. (2024). Investitsiyaviy muhiti bo‘yicha axborot. Toshkent.
3. CERR. (2024). Xorijiy investitsiyalar geografiyasi va tendensiyalar. Markaziy Osiyo Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi, Toshkent.
4. Jahon banki. (2024). Uzbekistan Investment Climate Assessment. Washington, D.C.
5. Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). Investitsion faoliyat tahlili. Toshkent.